

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI CHARM-POYABZAL SANOATI KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Ashurova Guljahon Nuralievna

Teacher of the Department of "Economics" University of Economics and Pedagogy NOTM

E-mail: nafisa.t.s@mail.ru

Tel.: +99(899)9062576

Annotatsiya: Ushbu maqolada bozor iqtisodiyot sharoitida Andijon viloyati charm-poyabzal sanoat korxonalari sifat menejmenti tizimi boshqarish va uni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: sifat, sifat menejmenti tizimi, bozor iqtisodiyot, charm-poyabzal sanoat korxonalari, islohotlar, kadrlar salohiyati, inovatsiyalar, charm-poyabzal ishlab chiqarish.

So'nggi yillarda O'zbekiston respublikasida charm-poyabzal sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarning turlari va assortimentini kengaytirish, shuningdek, tarmoq korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Charm-poyabzal sanoatning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali birinchi navbatda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar, charm va sun'iy charm poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va kengaytirish – Respublikamizda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun mahsulot sifatini oshirish zarur bo'ladi.

Mahsulot sifatini oshirish – jahondagi barcha yetakchi tashkilotlar uchun xos bo'lgan faoliyatining muhim yo'nalishidir. Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish – ichki va tashqi bozorlarda uning raqobatbardoshligining asosiy sharti hisoblanmoqda. Mahsulotning raqobatbardoshliligi ko'pincha mamlakatning prestijini belgilab beradi va milliy boylikni oshirishning xal qiluvchi omili bo'lib qolmoqda. Mahsulot sifatini oshirish uchun korxonada sifat menejmenti tizimi joriy etilgan bo'lishi kerak deb hisoblaymiz.

Sifat tizimi – bu korxonada sifatni umumiy boshqarishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy tizim, metodika, jarayonlar va resurslar yig'indisidir. Sifat menejmenti tizimini joriy etish va rivojlantirish - kompaniyada sifat boshqaruvining zarur komponentidir. Sifat menejmenti tizimi – korxonada sifat sohasida siyosat olib borish va maqsadlarni ishlab chiqish, shuningdek ushbu maqsadlarga erishish uchun tashkilotda yetakchilikni ta'minlaydigan o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir qiluvchi elementlar, tashkiliy tuzilmalar, jarayonlar va manbalar majmuasidir", deb hisoblaymiz. Tashkilotlar quyidagi maqsadlarga erishish uchun sifat menejmenti tizimini ishlab chiqadi, joriy qiladi va rivojlantiradi:

- majburiy talablarga javob beruvchi, shuningdek iste'molchilarining ehtiyojlari va talablarini qondira oladigan maxsulotni yetkazib berish qobiliyatini namoyish qilish;
- sifat menejment tizimini samarali qo'llash, shuningdek uni doimo

yaxshilash jarayonini tashkil etish orqali iste'molchilar qoniqish darajasini oshirish;

- raqobat kurashida ustunlikni ta'minlash;
- tashkilot samaradorligi va imkoniyatlarini oshirish.

Korxona sifat menejmenti tizimining qo'yilgan maqsadlariga qanday erishishni bilish uchun tashqi va ichki muhit omillarini tahlil qilish muhimdir. Bu holat ISO 9001-2015 standartining 4-bandida ifodalangan. Manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari va umidlarini tushunish (4.2), sifat menejmenti tizimining qamrovini aniqlash (4.3-band), sifatni menejmenti tizimi va uning jarayonlari (4.4-band), siyosat (5.2-band), tashkilotdagi funktsiyalar, mas'uliyat va vakolatlar (5.3-band), rejalashtirish (6-band), ta'minot vositalari (7-band) kabi elementlarni aniqlash uchun asosdir. Tashkilot ushbu tashqi va ichki omillar (holatlar) bilan bog'liq ma'lumotlarni kuzatishi va tahlil qilishi kerak.

1. Ko'rib chiqish uchun tanlangan omillar (holatlar) yoki shartlar ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2. Tashqi muhit tushunchasi xalqaro, milliy, mintaqaviy va mahalliy darajada qonunchilik, texnologiya, raqobat, bozor, madaniyat, ijtimoiy jihatlar va iqtisodiy sharoitlar bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishni o'z ichiga olishi mumkin.

3. Ichki muhit tushunchasi qadriyatlar, madaniy jihatlar, bilimlar, shuningdek ko'rsatkichlar bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishni o'z ichiga olishi mumkin [1].

Bu omillar o'zaro bog'liq bo'lib, ularning charm-poyabzal sanoat korxonalarining rivojlanishiga ta'siri O'zbekiston Respublikasidagi o'ziga xos sharoit va vaziyatga qarab har xil bo'lishi mumkin.

Jadval-1

O'zbekiston Respublikasida charm-poyabzal sanoat korxonalari sifat menejmenti tizimining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tasniflanishi

T/r	Ta'sir etuvchi omillar	Ta'sir etuvchi omillar ta'rifi
1.	Normativ-huquqiy baza	Charm-poyabzal sanoat sohasidagi qonun hujjalarni ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash, mahsulot sifati va xavfsizligi standartlariga rioya etilishini ta'minlash, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish.
2.	Hukumatning iqtisodiy siyosati	Barqaror iqtisodiy siyosat, charm-poyabzal sanoatni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, qulay investisiya muhitini yaratish va tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish.
3.	Infratuzilma holati	Rivojlangan transport-logistika infratuzilmasining mavjudligi, sotish bozorlari va xomashyoning mavjudligi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari va kommunikatsiyalarining mavjudligi.
4.	Bozor kon'yunkturasi	Bozordagi talab va taklifni tahlil qilish, iste'molchilar ehtiyojlarini o'rganish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqish va rag'batlantirish, marketing tadqiqotlari va strategiyalari.
5.	Moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasi	Charm-poyabzal sanoat korxonalarini rivojlantirish uchun kreditlar va moliyalashtirishning mavjudligi, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlarining mavjudligi, sarmoyalarni rag'batlantirish.
6.	Kadrlar	Charm-poyabzal sanoat sohasida malakali mutaxassislarning

	salohiyati	mavjudligi, ishchilar malakasini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlari va treninglar, kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishga ko'maklashish.
7.	Texnologik daraja	Ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, innovatsion materiallar va texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish.
8.	Xalqaro hamkorlik	Xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirot etish, xorijiy kompaniyalar bilan eksport aloqalari va sheriklik munosabatlarni rivojlantirish, xorijiy sarmoya va texnologiyalarni jalb qilish.

Tashkilot tashqi muhitga moslasha olsagina, omon qolishi va samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Hozirgi kunda charm-poyabzal sanoatda olib borilayotgan islohotlar natijasida ijobjiy natijalarga erishildi. O'zbekistonda keng turdag'i sifatli ishlab chiqarishni tashkil etish, uni ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston respublikasida 2023 yilda jami 11,5 trillion so'mlik, 2024 yilda 16,7 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, shundan o'tgan yilga nisbatan 5,2 % ga ortgan.

"O'zcharmsanoat" uyushmasi milliy korxonalari va klasterlariga ko'maklashishga qaratilgan turli loyihalarni amalga oshirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Loyihalar Xalqaro federatsiyasi – ITMF, Xalqaro moliya korporatsiyasi – IFC, Juhon banki, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati – GIZ, Amfori sertifikatlashtirish tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi – BMT YeIK, Hindistonning CITI, Koreyaning KOFOTI, Rossiyaning Sanoat va savdo vazirligi va boshqalar kabi xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan birga amalga oshirilmoqda. Dual ta'lim, standartlashtirish va sertifikatlashtirish, milliy brendlarni targ'ib qilish, ta'minot zanjirlarida barqarorlik va shaffoflikni oshirish, samaradorlikni takomillashtirish va boshqalar sohasidagi loyihalar milliy korxonalarga yuqori darajaga erishish va global brendlар va reteylerlar bilan hamkorlik qilish imkonini beradi [2].

Jadval -5

Charm-poyabzal sanoati tarmog'ini SWOT-tahlil asosida baholash

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari	Imkoniyatlar	Xavf-xatarlar
<ul style="list-style-type: none"> - Yirik charm sanoati mavjudligi. - Charm-poyabzal sanoat yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi . 	<ul style="list-style-type: none"> - Charm-poyabzal sanoatning to'liq tarkibiy qismlarining (masalan bo'yoqlar, sun'iy charm va boshqalar) import qilinishi. - Kadrlar malakasining pastligi, ayniqsa bozortexnologiyalar bo'yicha. -Charm-poyabzal 	<ul style="list-style-type: none"> Charm-poyabzal sanoat rivojlanishiga davlat tomonidan e'tibor qaratilishi - Charm-poyabzal sanoatni rivojlanirish uchun boy xomashyo bazasi mavjud. -Arzon ishchi kuchining 	<ul style="list-style-type: none"> -Korruptsiya darajasi, qarindoshchilik va urug'-aumoqchilikning yuqoriligi. - Qo'shni mamlakatlardagi siyosiy holat. -Inflyatsiya darajasi yuqoriligi. -Valyuta kursi. -Texnikani import qilishga bo'lgan qaramlik. - Suv resurslarining istiqbolda kamayib borishi.

<p>-Ko'p yirik korxonalarda texnika – texnologiyalarni g zamonaviyligi.</p> <p>-charm-poyabzal sanoat korxonalarining asosan aholi zich joyga yaqin joylashtirish mumkinligi.</p> <p>- ishlab chiqarishning inson organizmiga zararli tomonlari kamligi.</p> <p>- investorlarni jalg etish uchun sharoitlar yaratilayotganligi .</p> <p>-charm-poyabzal sanoat korxonalarida ayol kishi mehnatidan foydalanish mumkinligi.</p> <p>-yuqori talabga ega bo'lgam mahsulot ishlab chiqarilishi;</p> <p>- aralash (sun'iy charm) maahsulotlar ishlab chiqarish uchun texnika-texnologiyalarni g mavjudligi.</p> <p>-viloyatda standartlash va sertifikatsiyalash xizmatlarining mavjudligi.</p>	<p>sanoat ishlab chiqarishining katta qismi kichik va o'rta biznes sohasida jamlanganligi.</p> <p>-Korruptsiya qarindoshchilik va urug'aymoqchilikni g yuqori darajadaligi.</p> <p>-Xodimlar ish xaqi pastligi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - mahsulot sifati yuqori darajada emasligi. - sifat menejmenti tizimi sertifikatini olgan korxonalarda bu tizim tartib qoidalariга amal qilinmasligi. 	<p>mavjudligi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Klaster sanoatining rivojlanib borishi. - MDX davlatlari va Xitoyga nisbatan yaqin joylashganligi. - <p>Bozortexnologiyal ar va Internetdan foydalanish infrastrukturuning rivojlanib borishi.</p> <ul style="list-style-type: none"> -Soliq imtiyozlarning mavjudligi. -korxonalalar soni ortib borishi raqobatnni kuchaytirmoqda, sifatga e'tibor oshib bormoqda. -globalizatsiya tufayli autsorsing va autstaffing shartnomalari asosida ishlash mumkinligi. 	<p>-O'zbekistonda arzon dengiz transportidan foydalanish imkoniyati yo'qligi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Charm-poyabzal sanoat xomashyosini ishlab chiqarishdagi yer-suv resurslarining etishmasligi tufayli yuzaga kelgan qiyinchiliklar. - Energiyani ko'p iste'mol qiladigan sohani rivojlantirish imkoniyatlarining - elektr energiyasi va yoqilg'i etishmasligi tufayli cheklanganligi. - Malakali mehnat resurslarining xorijiy davlatlarga migratsiyasi natijasida kelgusida mehnat resurslari taqchilligining yuzaga kelishi. - Standartlash va sertifikatsiyalash xizmatlarining nisbatan qimmatligi. - Bozormarketing platformasining yo'qligi. -charn quritushda ob-xavo injiqliklari ta'sir etishi. -trasport logistikasining rivojlanmaganligi.
---	--	---	---

(Manba: muallif ishlanmasi)

Manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, turli davrlarda korxonaning ishlab chiqish jarayoniga mamlakat iqtisodiy tizimida hukmron bo'lgan turli xil tashqi va ichki

омилар та'sir ko'rsatgan. Shartli ravishda bu davrlar *texnologik tuzilmalar* va *iqtisodiyot turiga* mos keladi.

Hozir ishlab chiqarish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va robotlashtirishdir. *Birinchi sanoat inqilobi* bug' dvigatellari ("ko'mir va bug'" davri), *ikkinchisi* - mexanik ishlab chiqarish va elektr energiyasi ("neft, gaz, elektr" davri), *uchinchisi* - sanoat jarayonlarini keng miqyosda avtomatlashtirishga olib kelgan elektronika va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bo'lgan.

Bugungi kunda moddiy dunyo virtual dunyo bilan bog'lanmoqda, buning natijasida bitta bozorekotizimga birlashtirilgan yangi kiberfizik komplekslar tug'ilmoqda. "Aqli zavod" texnologiyasini yoyish orqali *to'rtinchi sanoat inqilobi* virtual va jismoniy ishlab chiqarish tizimlari global darajada bir-biri bilan moslashuvchan o'zaro ta'sir qilishi mumkin bo'lgan dunyonи yaratmoqda. Bu mahsulotni to'liq moslashtirish va yangi operatsion modellarni yaratish imkonini beradi. "Industriya 4.0" allaqachon dunyonи o'zgartira boshladi va yangi sanoat inqilobi muqarrar. Bu esa katta tavakkalchilikni tug'diradi, chunki global o'zgarishlar doimo jamiyat barqarorligini zaiflashtiradi. Ammo agar o'tkir ijtimoiy muammolarga o'z vaqtida javob berilsa, innovatsiyalar asta-sekin joriy etilsa, ular mavjud yechimlar bilan birlashtirilsa, ko'p muammolardan qochish mumkin bo'ladi.

Raqamlashtirish sharoitida SMTning faoliyat yuritishi sifat jihatidan yangi boshqaruv texnologiyalarini, shuningdek, turli yondashuv va kontseptsiyalarga asoslangan prinsipial yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish va qo'llashni taqozo etadi, xususan:

- robotlashtirish;
- qog'ozsiz, mobil, biometrik texnologiyalar;
- kiberfizik tizimlar (CPS);
- 3D bosib chiqarish (qo'shimchalar ishlab chiqarish);
- ochiq ishlab chiqarish texnologiyalari;
- neyrokompyuter texnologiyalari.

Ushbu texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish kerak.

Xozirgi kunda tashkilotlar sifat menejmenti tizimining rivojlanish darajasining korxonani raqamlashtirish sur'atlariga va tashqi muhit tomonidan talab qilinadigan talablarga muvofiqligini ta'minlash kabi muhim muammofiga duch kelmoqdalar. Sifat menejmenti tizimini raqamlashtirishdagi muammolariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Bozortexnologiyalarni tadbiq etish yuqori darajada sarf-xarajatlarni talab etadi (bozorplatformalardan foydalanish va unga texnik xizmat ko'rsatishda, avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqishda, kompaniya yoki davlat sirini tashkil etuvchi axborotlarni himoya etishda, tashkilotlarning o'zaro hamkorligi sharoitida elektron hujjat aylanishining yagona tizimini shakllantirishda);

2. Malakali kadrlar bilan ta'minlanishdagi qiyinchiliklar (turli darajadagi murakkablikdagi ko'p darajali tizimlarni tahlil qilish sohasida etarli bilimga ega va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishslash vositalari bilan ishslash tajribasiga ega bo'lgan xodimlarning yo'qligi, korxona xodimlarining yangi sharoitlarga moslashishni

istamasligi. Psixologik jihatdan bu “shaffof tizimlar”ni yaratishdagi sabotajda namoyon bo’lishi mumkin).

3. Elektron muvofiqlik sertifikatlarini taqdim etuvchi yagona “bozorreestr”ni shakllantirishning muqarrarligi.

Sifat menejmenti tizimini raqamlashtirish jarayonida tashkilotlar duch kelishi mumkin bo’lgan xavf guruhlarini ajratib ko’rsatamiz.

Tashkilotning xavflari:

- tashkilotning bozor rivojlanishining beqarorligi;
- sifat menejmenti tizimining o’zida manfaatdor tomonlar (steukxolderlar) o’rtasidagi muvozanatsiz o‘zaro ta’sir.

Xodimlarga oid qarorlari:

- xodimlarning kasbiy mahoratining yomonlashishi;
- kadrlarni tayyorlashga va o‘qitishga bo‘lgan zarurat bilan bog‘liq xavflar.

Texnologik xavflar:

- kompaniya ma’lumotlarini o‘g‘irlash va ularga nisbatan firibgarlik;
- kompaniya ichidagi korruptsiya.

Kompaniyaning sifat menejmenti tizimining samarali ishlashi uchun real vaqt rejimida ichki va tashqi muhitdan barcha o‘zgarishlarga tezda javob berish va tegishli qarorlarni boshqarishga ta’sir qilishi mumkin bo’lgan ma’lumotlarni olish, ma’lumotlarni yanada strukturalashtirish, ishlab chiqish va korxonaning barcha darajadagi menejerlari bilan muhokama qilish uchun taqdim etish kerak. Yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolarni hal qilish usullarini topish zarur [3].

Shunday qilib, tashkilotlar bozortransformatsiya sharoitida bozordunyo talablariga javob berishlari uchun nafaqat eng yangi texnologiyalarga amal qilish, balki axborot madaniyatini to‘liq o’zgartirish kerak.

Charm-poyabzal sanoat korxonalariga bozorsifat menejmenti tizimini joriy etishning assosiy maqsadi - uni doimiy ravishda takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratadigan, o‘z navbatida, kompaniyaning innovatsion salohiyatini ochib beradigan va sifat bo‘yicha uzlusiz ishlashni ta’minlaydigan shaffof boshqaruv tizimini qurishdir.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyot va u bilan bog‘liq bo’lgan bir qancha samarador texnologiyalar, shu jumladan, elektron tijorat va elektron biznes hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Huddi shuning uchun ham, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida, respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagagi PF-5349 sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi Farmonini ijro etish borasida, shuningdek, respublikamizda bozor iqtisodiyotni davlat boshqaruv tizimiga tadbiq qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarni jadal rivojlantirish bo‘yicha sharoitlar yaratish, shunigdek, axborot havfsizligini ta’minalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2018 yil 31 avgustda bozor iqtisodiyotning maqsad va vazifalarini belgilab beradigan “O’zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotni joriy qilish va yanada rivojlantirish bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g‘risida” Qaror qabul

qildi, hamda O'zR Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 dagi "O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini ham shu tadbirlar jumlasiga kiritish mumkin.

Yuqoridagi farmon va qarorlarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun bozor iqtisodiyotning mohiyati nima va uning asosiy tushunchalari nimalardan iboratligini pishiq-puhta bilib olish talab qilinadi.

Bozor iqtisodiyot - xo'jalik yuritishning yangi zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida bozorko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni hizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllriga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarini, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlii texnologiyalar yordamida maxsulot yetishtirishni va uni yetkasib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin.

Yakunlangan 2022-yilda O'zbekiston respublikasida bozortexnologiyalarni yanada rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

AKT sohasiga kiritilgan investitsiya hajmi 1,3 barobarga, soha tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi esa 1,25 barobarga oshirilishi natijasida aholi jon boshiga AKT xizmatlar 621 ming so'mni tashkil etdi, hamda qo'shimcha 29,6 mingta aholining bandligi ta'minlandi.

Hozirgi kunda 31,0 mln. kishi Internet xizmatidan foydalanmoqda, mobil Internet foydalanuvchilari soni esa 29,5 mln.ni tashkil etdi.

Ushbu tizimni ishga tushirish natijasida amaldagi muvofiqlikni baholash organlarining akkreditatsiya doiralari raqamlashtirildi va bu o'z navbatida respublikada ma'lum bir mahsulot uchun sertifikatlashtirish organi va sinov laboratoriylarini avtomatik ravishda izlab topish kabi qulayliklarni yaratdi. Mazkur tizimlarni tegishli vazirlik va idoralar, mutasaddi tashkilotlar va elektron hukumatning idoralararo integratsion platformasiga integratsiya qilinmoqda va shu orqali "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyili asosida davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirishga xissa qo'shilmoqda.

Xozirda barcha rivojlangan mamlakatlarda takomillashib borayotgan bozortexnologiyalar O'zbekistonning barcha viloyatlari charm-poyabzal sanoati korxonalariga, jumladan Andijon viloyati korxonalariga ham ushbu texnologiyalarni joriy etishga undamoqda. Iste'molchilar fikrlarini, istaklarini tezkor o'rganish, bozorni holatini tadqiq etish va unga tezkor moslashish, ishlab chiqarisni robotlashtirish, mahsulotni loyihalashda tayyor dasturlardan foydalanish uchun korxona faoliyatiga bozorsifat menejmeti tizimini joriy etish muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. О преобразовании Государственной акционерной корпорации "Уздонмахсулот" в акционерное общество "Уздонмахсулот": постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 06.08.2004 г. № 376 //

Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/docs/345389> (дата обращения: 10.06.2025).

2. Шишкин А. В. Теоретический анализ финансовой устойчивости хозяйствующих субъектов // Journal of New Economy. 2016. № 2 (64). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskiy-analiz-finansovoy-ustoychivosti-hozyaystvuyuschihs-subektov> (дата обращения: 10.06.2025).

3. Жалнова М. Н. Анализ финансовой устойчивости организации // Научное обозрение. 2022. № 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-finansovoy-ustoychivosti-organizatsii-1> (дата обращения: 10.06.2025).

4. Цицеров В. Д. Анализ финансовой устойчивости предприятия // Молодой ученый. 2022. № 20 (415). С. 527–528. URL: <https://moluch.ru/archive/415/91700/> (дата обращения: 10.06.2025).

5. Нармаматов И. Б. Обеспечение ликвидности и финансовой устойчивости компаний в Республике Узбекистан // Экономика и социум. 2024. № 4-2 (119). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-likvidnosti-i-finansovoy-ustoychivosti-kompaniy-v-respublike-uzbekistan> (дата обращения: 10.06.2025).

6. Хазраткулова Л. Н. Оценка эффективности управления денежными потоками на предприятии // Парадигмы управления, экономики и права. 2023. № 2. С. 68–77. URL: https://paradigmy34.ru/issues/2023_02/Hazratkulova.pdf (дата обращения: 10.06.2025).

7. Эргашева Ф. Экономическая сущность финансовой устойчивости страховых компаний в Республике Узбекистан: особенности её определения // Экономическое развитие и анализ. 2024. Т. 2, № 1. С. 579–585. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/45040> (дата обращения: 10.06.2025).

8. Бубновская Т. В. Методические подходы к оценке финансовой устойчивости предприятий // Территория новых возможностей. 2023. № 3 (67). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskie-podhody-k-otsenke-finansovoy-ustoychivosti-predpriyatiy> (дата обращения: 10.06.2025).

9. Зубарев И. С. Возможность Z-модели Альтмана прогнозировать корпоративные финансовые затруднения российских компаний // Вестник евразийской науки. 2020. № 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vozmozhnost-z-modeli-altmana-prognozirovat-korporativnye-finansovye-zatrudneniya-rossiyskih-kompaniy> (дата обращения: 10.06.2025).